

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

“MUSIQA NAZARIYASI VA METODIKASI” KAFEDRASI

“VOKAL IJROCHILIGI”
fanidan

AMALIY MASHG'ULOTLAR

**Tuzuvchilar: Katta o'qituvchi Boychaeva N
O'qituvchi Rajabov A
O'qituvchi Saidov M**

JIZZAX-2010

**Fan -“Vokal ijrochiligi” (yakka tartib) 3 – bosqich talabalari
uchun amaliy mashg’ulot dars ishlanmasi.
1 – mashg’ulot (6 soat)**

**MAVZU: Notaga qarab mashqlar kuylash, asarlarni musiqa
jo’rligida kuylash.**

REJA:

1. Berilgan asarlarga mos mashqlar tanlash.
2. Asarlardan bittasini musiqa jo’rligida kuylash.
3. Talabaga vazifa berish.
4. Mashg’ulotning kirish qismi:

Vokal darsida “ovoz sozlash” asosiy rol o’ynaydi. Ovoz sozlash mashqlari 10 – 15 minut, ayrim hollarda 20 – 25 minut davomida o’tiladi. Ovoz sozlash mashqlari har bir mashg’ulotda o’tishi shart. Ovoz sozlash mashqlari, kuylanadigan asar diapazoniga moslab o’tiladi, ya’ni shu asarning eng past notasi va eng yuqori notasi darajasida kuylanadi. Bu mashg’ulotda “Ona yurtim” (S.Jalil musiqasi) qo’shiqi o’rganiladi. Bu qo’shiqning eng rastki notasi birinchi oktava “re” notasidan boshlanadi va avj qismi 2- oktava “re” notasigacha etadi. Shuning uchun mana shu diapazon oraliqida ovoz sozlash mashqlari o’tilishi kerak.

2. Asosiy qism : Asarlardan bittasini musiqa jo’rligida kuylashga o’rganish. Bugungi mashg’ulotda “Ona yurtim” qo’shiqini kuylashni o’rganish talab etiladi. Oldin shu asar mualliflari tanishtiriladi va uning matni o’rganiladi.

Asar uch qismga bo’lib o’rganiladi. Birinchi qismida ashula boshlanishida ozgina murakkab joylariga e’tibor beriladi. Masalan, “Olam aro yurtlarning eng a’losi” deb boshlanadigan qismida “eng a’losi” degan bo’lakchasi sal murakkabroq aytiladi. Shuning uchun o’sha joyi sal ko’proq mashq qilinadi.

Asarning ikkinchi qismi avj qismi ikkinchi oktava “re” notasigacha kuylanadi. “ Tolei yor aytaymi , jonim o’lkam “ deb boshlanuvchi 2- qismida “Tolei yor” so’zlarini aniq aytishga e’tibor berish zarur, aks holda bu boshqacha eshitiladi.

2 – qismida 3 –qatori kuylanayotganda ovoz kuchini juda pasaytirib kuylashga to’g’ri keladi va o’u orqali obrazlikka erishiladi. Asarning uchinchi qismi ham xuddi 2- qismga o’xshab kuylanadi. Bu qismida ham 1-2 qatorlari kuchli aytiladi va 3 – qatori esa sekin kuylanadi.

3. Yakuniy qism: “Talabaga vazifa berish”:

Bugungi mashg’ulot orqali olgan bilimlarini mustahkamlash vazifa qilib beriladi. Talaba shu asarni 2 ta qismini yodlab o’rganib kelishi kerak bo’ladi.

Fan: “ Vokal ijrochiligi (yakka tartib)
3 – bosqich talabalari uchun amaliy mashg’ulot dars ishlanmasi.
2 – mashg’ulot (4 – soat)

**MAVZU: Asarlarni qismlarga bo’lib o’rganish, frazala,
urg’ular ustida ishlash.**

REJA:

1. Ovoz sozlash mashqlari.
2. Asarlardan bittasini qismlarga bo’lib o’rganish va fraza, urg’ularga e’tibor berish.
3. Talabaga vazifa topshirish.

1 – Mashg’ulotning kirish qismi.

- Mashg’ulotni doimo ovoz sozlash mashg’lari bilan boshlaymiz.
 - Mashq Do, re, mi, re, do mashqini 1- 1,5 oktava oraliqida pastdan tepaga ko’tarib beramiz.
 - Mashq . Mi - i – i – i , e – e – e – e , yo – o – o – o mashqini ham shu tarzda ijro qilinadi.
 - Mashq. Da, de, di, do, du mashg’ini bir pog’onadan 1- 1,5 oktava oralig’ida pastdan tepaga, tepadan pastga tomon kuylaymiz.
 - Mashq. Bitta major gammasini ligato hamda stakato usulida kuylaymiz.
- Shu bilan ovoz sozlash mashqlarini yakunlab mashg’ulotning asosiy qismiga tayyorgarlik ko’ramiz.

Asosiy qism: Asarlardan bittasini qismlarga bo’lib o’rganish fraza, urg’ularga e’tibor berish.

Bu mashg’ulotda “Alla” qo’shiqi asari o’rganiladi. Bu qo’shiqni she’rini Z.Obidov. musiqasini A.Muxammedov bastalagan. Asarni ijro etishda ijrochidan nafas yo’llarini mustaxkamlash, ovozni zo’riqtirmaslik hamda engil, mayin ijro eta olish talab qilinadi.qo’shiqni avjini bir oz hayajon bilan kuylash lozim.

Umuman asar katta his tuyg’u bilan ijro etilishi kerak. Qo’shiq o’rtacha diapazonli ayollar ovoziga moslangan bo’lib, mayin lirik xarakterga egadir. Demak bu asarni 4 qismga bo’lib o’tish kerak. Asarning birinchi qismi 1- oktava “re” notasidan boshlanadi va yuqori qismi “lya” notasigacha etadi va qo’shiqning har bir qatori juda engil aytilishi kerak bo’ladi.

Avj qismi esa 2- oktava “do” notasidan “re” notasiga o’tib ohanglar o’zgarishi ro’y beradi ya’ni si bemol notasi bekar belgisi orqali o’zgaradi. Shu joyini alohida e’tibor bilan urg’u berib aytish talab qilinadi. Qo’shiqni oxirgi qismi og’izni yumib kuylanadi. Unda ham ovoz chiqarish o’ziga xos maqoratni talab qiladi.

3 – Yakuniy qism: Talabaga vazifa berish: mashg’ulotni mustahkamlab Talabaga bugungi asar so’zlarini talaffuzini yaxshilab o’rganish va ohanglarni mustaqil mashq qilish topshiriladi.

Fan: Vokal ijrochiligi.

3–bosg'ich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'lot dars ishlanmasi.

3 – Mashg'ulot (4-soat)

Mavzu: Asar xarakteri g'oyaviy mazmunini his etib erkin kuylash.

REJA:

1. Ovoz sozlash mashqlari.
2. Dasturdagi bitta asarni tahlil qilib uni kuylashni o'rganish.
3. Talabaga vazifa belgilash.

1. Mashg'ulotning kirish qismi.

Bu mashqulotda vatanni madh etuvchi Nadim Norxo'jaev musiqasi, Habib Rahmat she'riga “ Diyor madhi “ qo'shig'i o'rganiladi . Shuning uchun bu asarga xos bo'lgan ovoz sozlash mashqlari o'tiladi. (ko'proq)

1-mashq. “ mi –i – i – i – yo “ ni yarim tondan pastdan yuqoriga ko'tarib boramiz va yana orqaga qaytamiz.

2 –mashq. “Ovozimni sozlayman” so'zlarini musiqiy ohangga solib kuylab uni ham yarim tondan ko'tarib, keyin pastki pardalarga olib tushamiz. Qaysi notadan boshlab qaysi nota pardasida tugallash har bir ijrochining imkoniyatiga bog'liq.

3 –mashq. Do major va re major gammalari kuylanadi, chunki o'rganiladigan asarning boshlang'ich pardasi 1-oktava “re” va yuqori pardasi 2-oktava “re” notasidir.

2. Asosiy qism: Asar xarakteri va g'oyaviy mazmunini his etib erkin kuylash. Bu mashq'ulotda “Diyor madhi” qo'shig'i tahlil qilinib, uning xarakteri va g'oyaviy mazmuni his etilib kuylanishi lozim.

Asarning so'z matni manosi Ona-vatan kelajagi haqida, uning tarixi, uning dunyodagi o'rni va buyukligi haqidadir.

“ Ona - vatan ertasi
Kelajakning mevasi
Bilim xunar egasi
Biz bo'lamiz albatta

Niyatlar ulkan katta” deb boshlanadigan bu asar juda sodda va ravon yozilgan. Asar 4-qismdan iborat. Musiqasi ham o'ziga mos qilib yozilgan. O'rganuvchi ham juda osonlik bilan qabul qiladi. Asar o'rtacha tezlikda yozilgan, arsh tempida. Bu asarni yigitlar ham qizlar ham kuylasa bo'laveradi. Bu qo'shiqni ohangini, so'zlarini ma'nosini his qilib kuylash lozim, shunda uning xarakteri ochiladi.

3. Yakuniy qism: Talabaga topshiriq berish.

Talabadan shu asarni yanada yaxshilab o'rganish va uni me'yoriga etkazib kuylash talab qilinadi. Iloji boricha shu asar kuyini talaba o'zi fortopianoda chalib o'rganib o'zi ijro qilsa talabga muvofiq bo'ladi.

Fan: Vokal ijrochiligi.
3-bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'ulot dars ishlanmasi.
4– mashg'ulot (6 soat)

Mavzu: Til, jag', yumshoq tanglay, lablarni to'g'ri ishlatish, dastur asarlarini o'rganish.

Reja:

1. Ovoz sozlash mashqlari.
2. Dastur asarlarini o'rganishda ovoz chiqarish apparatlaridan to'g'ri foydalanish.
3. Talabaga topshiriq berish.

1. Mashg'ulotning kirish qismi.

Mashg'ulot har doimgidek ovoz sozlash mashqlari bilan boshlanadi.

Mashq. Ovozni yumgan holda bir necha mashqlar bojariladi. (m-m-m) usulda.

mashq. M – m – m – m – e – e – e – yo – o – o – o – o mashq bajariladi.

mashq. “ Bog'da bulbul sayraydi, tinglab ko'nglim yayraydi variantini yarim tondan ko'tarib yuqoriga va yarim tondan pastga tushirib kuylaymiz.

mashq. Major gammasidan 2 ta kuylaymiz . Ovoz sozlashga kamida 10 – 15 minut sarflaymiz.

2 – Asosiy qism:

O'rgatiladigan asar – “Sayohat rohat” qo'shig'i P.Mo'min she'ri, D. Zokirov musiqasi. Asar quvnoq xarakterda yozilgan, uni ko'tarinki kayfiyatda ijro etish kerak. qo'shiqning daromad qismidagi har ikki taktning birinchi notasi, naqorat qismida esa birinchi taktning notasi ozroq zarb (aktsent) berib kuylanadi. Bir musiqa jumlasidan ikkinchi musiqa jumlasiga o'tishda va shu jumlar o'rtasida uchraydigan kvarta, kvinta va septima oraliqlar – intervallarni kuylash ijrochining shu oraliqlarni aniq talaffuz qilish malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Qo'shiq matni: Do'stim yur tezroq sayr etaylik bir
Elni o'rganmoq, o'zi maktabdur
Yuraylik yayov, havo top – toza
Bepoyon yaylov, quraylik rosa

Naqorat: Bahorda yozda qilsak sayohat
Kuzda, ayozda jonlarga rohat
Eng yaxshi odat – sayohat rohat
Rohat sayohat rohat.

Har narsa go'yo berganday so'roq
Sharqirar dunyo, kel der dala, bog'
Qancha ko'p ko'rsak ilmimiz oshar

Sog'lom, dovyurak bo'lmoq yarashar

Qo'shiq matni juda sodda , ravon yozilgan bo'lib , buni xor bo'lib yoki yakka holda kuylash mumkin. “Do'stim yur tezroq sayr etaylik bir” degan birinchi qatorda to'rtta joyda “R” Harfi uchraydi , o'zi bu asarda “R” harfi juda ko'p.

Shu harfni talaffuz qilish uchun til va yumshoq tanglay asosiy rol o'ynaydi. Mana shu asardagi so'zlarni to'g'ri ravon talaffuz qilish uchun til, jag', yumshoq tanglay va lablarni to'g'ri ishlatishga e'tibor beriladi.

Bu asar “Fa” birinchi oktavadan boshlanib, avj qismi 2- oktava “Re” notasigacha etadi va 1- oktava “Re” notasida tugaydi.

3 – Yakuniy qism: Talabaga vazifa berish:

Talabaga bugungi mashg'ulotni mustahkamlash qo'shiq matni va kuyini o'rganish vazifasi topshiriladi.

Qo'shiq matnini kuylayotganda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga e'tibor hilish aytiladi.

Fan: Vokal ijrochiligi.

3 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg’ulot ishlanmasi.

5 – mashg’ulot. (4 soat)

Mavzu: Mayin, ohista, qattiq, keskin tovush hujumlarini qo’llash.

REJA:

1. Ovoz sozlash mashqlari.
2. “Omon yor” qo’shiqida ovoz hujumlarini ishlatish.
3. Talabaga mashqulot bo’yicha topshiriq berish.

Mashg’ulotning kirish qismi:

Mashg’ulotning ovoz sozlash qismida ham “mayin, ohista, qattiq keskin” – tovush hujumlarni qo’llash qoidalari o’tiladi.

1 – Mashg’ulotning kirish qismi:

Mashg’ulotning ovoz sozlash qismida ham “mayin, ohista, qattiq keskin” tovush hujumlarni qo’llash qoidalari o’tiladi.

1 – mashq: do – re – mi – re – do oraliq 1 tondan bu mashqni sekin boshlab yarim tondan ko’tarib boramiz va uni yarimida ovozni kuchaytirib aytamiz, oxirida juda kuchli ovozda kuylaymiz. Orqaga qaytganda uning aksini ishlaymiz.

2 – mashq: Yarim mashqni ovozni sekinlatib og’izni yumgan holda va keyin og’izni ochib ovozni kuchaytirgan holda mashq qilish.

3 – mashq: 1 ta mojar va 1 ta minor gammalaridan kuylash.

Ovoz sozlash mashqlari ovoz hujumlari qoidalari orqali bajariladi.

2 – Asosiy qism: O’zbek xalq qo’shi’i “Omon yor” T. Toshmatov - fortopiano va akademik ijroga moslashtirgan.

Jon uka , Andijonlik uka, omon yor
(O...) Seni qaddi – bo’yingdan, omon yor
Eshik oldi gul hovuz, omon yor
(O...) Gul tergani kelganmiz, omon yor
Gulni bahona qilib, omon yor
(O...) Yor ko’rgani kelganmiz, omon yor.
Jon ukam Farg’onalik ukam, omon yor
(O...) Seni qaddi – bo’yingdan, omon yor.

Ushbu ommaviy xalq qo’shig’i o’rta balandlikdagi ovozlar uchun mo’ljallangan bo’lib, ma’lum xonandalik malakasini egallagan talabalar uchun tavsiya etiladi. Bu qo’shiq xonandaning nafasini mustahkamlaydi va ovoz jarangdorligini oshiradi.

Jumla boshida beriladigan urg'u xonandaning "ovoz hujumi" ning shakllanishiga ko'maklashadi. qo'shiqni kuylaganda uning milliy bezaklarini saqlab qolishga alohida e'tibor berish lozim.

Qo'shiqning har bir qismining boshlanishi keskin tovush hujumi bilan kuylanishi kerak. Keyingi 2 qatori bir oz sekinroq kuylanishi kerak.

Qo'shiqning boshlang'ich qismi 2 – oktava "do" notasidan boshlanib 1 – oktava "re" notasiga kelib tushadi. O'zbek milliy qo'shiqchiligida bunday holatlar ham uchrab turadi, chunki qo'shiq kuylar asosan pastki notadan tepaga qarab intiladi.

3 – Yakuniy qism: Talabaga vazifa berish.

Bugungi mashg'ulotni mustahkamlash, ovoz hujumlari to'g'risida tushuncha hosil qilish va shunga qo'shimcha material izlanish talab qilinadi. qo'shiqni tekstini yodlash, kuyini o'rganib kelish vazifasi belgilanadi.

Fan: Vokal ijrochiligi.
3 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg’ulot ishlanmasi.
6- Mashg’ulot (6 soat)

Mavzu: Lirik, dramatik, tantanavor kuylash malakalari ustida ishlash.

REJA:

1. Ovoz sozlash mashqlari .
2. Lirik tenor ovozga xos bo’lgan “Maftun bo’ldim” qo’shig’ini o’rganish.
3. Talabaga vazifa belgilash.

1 – Mashg’ulotning kirish qismi .

Mashg’ulotning kirish qismi doimo ovoz sozlash mashqlari bilan boshlanadi.

1-mashq: mi – i – i – i , e – e – e – e , yo – o – o – o mashqini ijro qilamiz.

2-mashq: do – re – mi – re – do mashqini ijro qilamiz.

3-mashq: “Bulbulcham”, “Yomg’ir yog’alo ” qo’shiqlaridan ovoz sozlash uchun foydalanamiz .

4-mashq: Do major va re major gammalarini kuylaymiz.

Undan boshqa kichik – kichik asarlardan ovoz sozlash uchun foydalansa bo’ladi.

2 – Asosiy qism:

Lirik tenor ovozga xos bo’lgan “Maftun bo’ldim” qo’shig’ini o’rganish.

T.To’la she’ri Maftun bo’ldim M.Burxonov musiqasi.

Yori jonim

Mehribonim, jonon!

Guluzorim,

Kel nigorim, jonon

Maftun bo’ldim, maftun buldim,

Go’zal bir jononga.

Maftun bo’ldim, jondan aziz,

Xumor ko’z jononga.

Senda doim.

Fikru yodim jonon

Yori jonim

Sen murodim, jonon.

Maftun bo’ldim, maftun bo’ldim

Go’zal bir jononga.

Maftun bo’ldim, jondan aziz

Xumor ko'z jononga.

Ushbu asar ritm jihatidan ancha murakkab bo'lib, ijrochidan katta mahorat va mehnat talab qiladi. Ayniqsa qo'shiqning so'zsiz qismi ovoz chiroyiga sayqal berishga, nafas cho'zimini kengaytirishga yordam beradi.

Mazkur qo'shiq ijrochilik malakalarini ma'lum darajada o'zlashtirgan lirik tenor ovozlarga tavsiya etiladi.

3 – Yakuniy qism: Talabaga vazifa belgilash:

Bugungi mashg'ulotni yakunlab, talabaga jumladan shunday vazifalar topshiriladi: qo'shiq tekstini yod olish, musiqasini o'rganish va uning melodiyasi notalarini fortopianoda chalib ijro qilish.

Fan: Vokal ijrochiligi.

**3 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg’ulot dars ishlanmasi.
7 – Mashg’ulot (6 soat)**

Mavzu: Dasturdagi asarlar bilan ishlash, obralikka erishish.

REJA:

1. Ovoz sozlash mashqlari.
2. Dasturdagi asarlardan - “Istiqlol haqida qo’shiq” asarini o’rganish.
3. Talabaga vazifa belgilash.

1 – Mashg’ulotning kirish qismi:

Mashg’ulot ovoz sozlash mashqlari bilan boshlanadi.

1-mashq: Do – re – mi – re – mi – do mashqlarini ijro qilishda sekin mayin kuylashga erishish .

2-mashq: Kichik – kichik asarlardan ovoz sozlash uchun foydalanish.

3-mashq: Major va minor gammalaridan 2 tasini ijro qilish.

4-mashq: Boshqa har xil talaffuzlar orqali ovoz sozlash mashqlaridan foydalanish.

2 – Asosiy qism: Dasturdagi asarlardan “ Istiqlol haqida qo’shiq” ni o’rganish, obrazlikka erishish. A.Qo’ldoshev she’ri, Q.Mamirov musiqasi.

Ey muqaddas To’ron, ey qutlug’ makon

Senda ziyo topdi har ahli urfon

Jahongir Temurning ruhi senga yor

Adolatning tug’i bo’ldi barharor.

Naqorat:

Yasha O’zbekiston istiqlol yasha

Aziz xalqim, baxting kulsin hamisha

Kelajaging to’lsin nur, istiqbolga

Avlodlaring etaversin kamolga!

Keldi yorug’ kunlar o’zbek eliga

Ega bo’ldi o’z erkiga tiliga

Ilmu – fanning ochib oltin sandig’in

Kalitini berdi yurtning qo’liga.

Bu qo’shiq marsh tempida yozilgan bo’lib 3 ovozli qilib ijro etiladi va bu qo’shiqni solist ijro qilsa ham bo’ladi, ayniqsa bu bariton ovozga to’g’ri keladi.

3 – Yakuniy qism:

Talabaga shu asarni yodlab o’rganish vazifa qilib topshiriladi.

Fan: Vokal ijrochiligi.
3–bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg’ulot dars ishlanmasi.
8 – Mashg’ulot (6 soat)

Mavzu: Ovoz kuchi, diapazonini o’stirish mashqlari.
Dastur asarlari bilan ishlash.

REJA:

1. Ovoz sozlash mashqlari.
2. “Mirzacho’l yor-yori” o’shiqini o’rganish.
3. Talabaga vazifa belgilash.

1 – Mashg’ulotning kirish qismi.

Ovoz sozlash mashqlari:

1-mashq : mi – i – i – i, e – e – e – e, yo – o – o – o mashqini ijro qilishda harf talaffuzlarini to’g’ri aytish va ovozni to’liq chiqarish va har bir frazani bir nafasda uzmasdan kuylashga erishish .

2-mashq: Do – re – mi – re – do musiqiy tovushlarni har xil variantlarda kuylash.

3-mashq: Kichik – kichik asarlardan fragmentlar kuylash.

4-mashq: Major va minor gammalaridan 2 – 3 tasini kuylash.

2 – Mashg’ulotning asosiy qismi:

Shomuxammedov she’ri H .Qodirov musiqasi.“ Mirzacho’l yor – yori”

Peshonamni yaltiratgan cho’l shamoli yor – yor

Yuragimni zirg’iratgan yor jamoli yor – yor

deb boshlanuvchi bu qo’shiq 60 – yillarda yaratilgan. Mazkur asar xonanda ayollar ovozi uchun mo’ljallangan zamonaviy yor – yordir. U sho’h, o’ynoqi estrada qo’shiqlari xarakteriga ega. Bu qo’shiqni ijro etayotganda nafasni qisqa va keskin olib, har bir so’zni alohida ta’kidlab kuylash lozim. qo’shiqni jozibali kuylash uchun ma’lum texnik qiyinchiliklarni bartaraf qilish, ya’ni o’noltilik notalarda so’zlarni tez va aniq talaffuz qilish vokaliz (so’zsiz) qismida ovozni erkin chiqarib kuylash vokalizdan keyingi qismini past ovozda burro qilib kuylash talab etiladi .

3 – Yakuniy qism:

Talabadan bugungi mashg’ulotni yanada puxta o’rganish talab etiladi.

Fan: Vokal ijrochiligi.
3 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg’ulot dars ishlanmasi.
9 – Mashg’ulot (6 soat)

Mavzu: Interval va akkordlarni intonatsiya qilish.
Dastur asarlari bilan ishlash

REJA:

1. Ovoz sozlash mashqlarini kuylash .
2. Dasturdagi “Chilonzor” qo’shig’ini o’rganish va shu asarda uchraydigan intervallarga e’tibor berish.
3. Talabaga vazifa belgilash.

1 – Mashg’ulotning kirish qismi: Ovoz sozlash mashqlari .

- 1-mashq: Do – re – mi – re – do mashqlarini kuylashda yumshoq, mayin va kuchli ohanglarda ijro etishga erishish.
- 2-mashq: Do – mi – sol intervalida mashqlar kuylash.
- 3-mashq: Major va minor gammalaridan 2 tasini kuylash.
- 4-mashq: Kichik – kichik asarlardan ovoz sozlash mashqlarida foydalanish. Ovoz sozlash mashqlariga 15 – 20 minut vaqt sarflanadi.

2 – Asosiy qism: Oymirzaev she’ri F.Nazarov musiqasi.

“ Chilonzor “

Ey do’stlar Toshkentda bo’lsangiz mehmon
Kutib olajakman sizlarni shodon
Yashnatib har yonni ekib gul – lolalar
Qurganman bir shahar - nurli oshyon.

Quvnoq shahrim, go’zal Chilonzor
Sen aziz umimda misoli bahor
Ko’rkam chamanzor, obod Chilonzor
Sen aziz umrimda misoli bahor.

Bu asar qo’shiqchilik sohasiga endigina kirib kelayotgan talabalarga vokal malakalarini o’rganishda, rivojlantirishda yordam beradi. Ijrochining so’zlarni baralla aytib, engil va ravon ovoz hosil qilishga ko’maklashadi. Naqoratdagi kvarta intervali ovoz tayanchini mustahkamlaydi. Bu interval naqoratdagi “Quvnoq va go’zal” so’zlariga to’g’ri keladi, ya’ni har bir bo’g’in orasi kvarta intervaliga to’g’ri keladi.

Bu intervalni to’g’ri kuylash ozroq mahoratni talab qiladi.

3 – Yakuniy qism: Talabaga vazifa berish.

Bugungi mashqulotlar orqali talabaga bu mashqlarni mustahkamlash, ularni yod olish va o’zi shu kuyni ohanglarini fortopianoda o’rganish vazifalari topshiriladi.

Fan: Vokal ijrochiligi.
4 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'ulot ishlanmasi.
1 – mashg'ulot. (2 soat)

Mavzu: Maktab repertuariga kiritilgan qo'shiqlardan ikkitasini mustaqil o'rganish va kuylash.

REJA:

1. Ashulachilik nafaslari.
2. Nafas olish qonun qoidalari.
3. Nafas olish turlari.

Darsning maqsadi:

Ovoz, tembr, nafas, artikulyatsiya, diktsiya, ovoz turlari, ashula aytish, inson ovozi apparati murakkab « musiqa asbobi » bo'lib, u o'zining rang - barang temr boyligi musiqa asboblardan ustun turadi.

Darsning qisqacha bayoni.

Kishi ovozi kuy va so'zni payvandlash natijasida musiqiy nutqni asl ma'nosini ochib beradi. Ovoz apparati tomoq hiqildoq, xalqum, ovoz pardalari (bog'lamlari) rezanatorlar va har xil mushaklardan iboratdir. Nafas turlari 3 ga bo'linadi.

1. Yuqori ko'krak nafas olganda elka ko'tariladi. Nafasning bu turi zararlidir. Vokal ijrochiligida bu tur qo'llanilmaydi.

2. Ko'krak - qorin (ko'krak o'rta qovurg'a biqin)

3. Aralash pastki qovurg'a diafragma.

Vokal ijrochiligida pastki qovurg'a diafragma ustida nafas olinadi. Bu usul to'g'ri. Bu usulni talabalarga amaliy jihatdan kuylab tushuntirib ko'rsatish lozim. Nafas og'iz va burunda bir vaqtda olinadi. Vokal darsida nafas olishda qo'llarni biqinga qo'yish, nafas olish va sarflashni kuzatishda qovurg'a bo'ylab qo'l harakatlarining kuzatishi yaxshi natijalarga olib keladi. Ashula aytishda nafas jumlar tugagach, yangi jumla boshida olinadi. Fraza va so'z o'rtasida nafas olish mumkin emas.

Fan: Vokal ijrochiligi.
4 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'ulot ishlanmasi.
2 – mashg'ulot. (2 soat)

Mavzu: Ovoz turi, kuchi, diapozoniga mos vokaliz va asarlar tanlash.
REJA:

1. Ovoz kuchi va diapozoniga rioya qilib kuylash.
2. Dasturni asarlar vositasida tayyorlash.

Darsning maqsadi:

Vokal asarlarini kuylashda asarning tempi, o'lhovi bilan va alteratsiya dinamiklarga rioya qilib kuylashni o'rgatish.

Darsning qisqacha bayoni.

Vokal asarlarini o'rganishda tempning o'z o'rnini mavjud, harakat tezligi temp (sur'at) deyiladi. Temp Musiqa asarlariga ifoda vositalaridan biri bo'lib, musiqa asari mazmuni bilan bog'liq. Templar uchta asosiy guruhga bo'linadi, vazmin, o'rtacha va tez kuchli va kuchsiz g'issalarning tekis almashinib turishi metr deyiladi. Metr g'issasi xilma - xil cho'zimlarda ifdalanishi mumkin. Metr g'issasining ma'lum cho'zimda ifodalanishi - o'lchov deyiladi. Alteratsiya va dinamik belgilarga rioya qilib kuylashda diez #, dubl - diez - X, bemol - , dubl-bemol , bekar- belgilarga e'tibor qaratilib asar o'rganib chiqiladi, g'amda o'rganish jarayonida amal qilinadi. Bu borad diapazon kenglik oraliq ovoz diapazoni eng past va eng yuqori tovushlar oralig'iga aytiladi. Belgilar kalit o'ng tomoniga, nota oldiga, lozim bo'lsa chiziq oralig'iga ham qo'yiladi.

Fan: Vokal ijrochiligi.
4 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'ulot ishlanmasi.
3 – mashg'ulot. (4 soat)

Mavzu: Asarlar mazmuni, mualliflari haqida ma'lumotlar bilan tanishish.

REJA:

1. Asarlar mualliflarining hayoti va ijodi.
2. Dasturdagi asarlar mazmuni bilan tanishish va kuylash.

Darsning maqsadi:

Vokal ijrochiligi darsida talabalarning imkoniyati turlicha bo'ladi. Ovoz sozlash va o'stirish Mashqlarini o'z imkoniyatlari darajasida o'rganib olgan talaba uchun ravon ijro malakasi so'zlar tuzimiga bog'liq, asarlarni kuylash asar g'oyasini yoritish uning maqsad va mohiyatini ovoz orqali yaratishdek muhim vazifa turadi.

Darsning qisqacha bayoni:

So'z tuzimlarini musiqa ohanglariga mos ravishda aniq burro dramatik ovozda kuylash bajarish so'zdan musiqaga, musiqadan so'z tuzimlariga o'tish regitativ kuylashga misoldir. Masalan A.Nazarovning «Men nechun sevaman O'zbekistonni» asarining oxirgi qismida xonanda regitativ usulda kuylashga, maqsadni so'z orqali kuyga solmasdan aytish frazalari mavjud. Asarning g'oyaviy mazmuniga yanada tantanavor tus berishda bu usul juda o'rinli qo'llangan. Ijrochilarda ham vatanga muhabbat sadoqat, fidoyilik hissini tarbiyalashga, tinglovchilarni ham chorlashda juda ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qilgan. Shu yuois regitativ usulda kuylash artikulyatsiya, diktsiya ovoz apparati holatlari uyg'un bir butunlikni mujassam etadi.

Fan: Vokal ijrochiligi.

4 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'ulot ishlanmasi.
4 – mashg'ulot. (2 soat)

Mavzu: Kuylashda vokal texnikasining o'zlashtirish malakalari ustida ishlash.

REJA:

1. Vokal texnikasining o'ziga xosligi.
2. Dastur asarlari bilan ishlash.
3. Ligato, stakkato va ular ustida ishlash.

Darsning maqsadi:

Vokal kuylashda ligato va stakkato kuylashning ahamiyati katta. Vokaliz va ovoz uchun har xil mashqlar vositasida ligato kuylash, vokal ijrochiligida nafasni tarbiyalash.

Darsning qisqacha bayoni.

O'qituvchi vokal kuylashsh ko'nikmalarini shakllantirishda nafas, bo'g'iz, jag', til, og'iz, lablar, yumshoq tanglayning g'arakatlanishi g'olatarini amalda va tasvirlar vositasida ko'rsatib o'tadi, mag'alliy shevachilikda va talaffuzning buzilishida tovushning aniq ravon, buro chiqmasligi, qator tamoqli burunli qisilgan tovush g'olatlari to'g'irlashda ligato mashqlarini kuylash mashqlarini takrorlash maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun aynan ashulachilik apparatini kasbiylik tuqtai nazardan ishlata bilishsh vositasida unli tovushlarda ligato va stakkato kuylash Mashqlarini muntazam bajarishsh talab etiladi. Shu asnoda dasturdagi asarlar bilan ishlashni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Nafasni maqsad sari asar mazmunini ochishga yo'naltirish, artikulyatsiya va diktsiya g'olatlari e'tiborni qaratish, kamchiliklarni anglash va uni to'g'irlash maqsad va oliy maqsadga erishishdir.

Fan: Vokal ijrochiligi.

4 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'ulot ishlanmasi.
5 – mashg'ulot. (4 soat)

Mavzu: So'zsiz kuylash, qo'shiq kuylashda psixologik, fiziologik, anatomik omillarga ahamiyat berish.

REJA:

1. Qo'shiq kuylashda psixologik, fiziologik anatomik omillarning o'ziga xos xususiyatlari.
2. So'zsiz kuylashning o'ziga xos ahamiyati.

Darsning maqsadi:

Dars jarayonida har xil gammalar kuylash, musiqiy sulxning rivojlanishiga olib keladi. Chunki talaba gammalar kuylash jarayonida bir necha vazifani bajarishga ma'sul bo'ladi. Chalinayotgan gamma tovushlarini eshitish ularni nota nomi yoki biror unli tovush yoki so'z tuzimlari vositasida kuylash lozimdir.

Darsning qisqacha bayoni:

Talabadan ovoz apparatining vokal kuylash asoslariga mos kelishi, lablar yumshoq, tanglay, g'iqildoqlar, nafas olish va sarflash, toza kuylash kabi bir qator kuylash me'yorlarini bajaradi. Har bir parda ohangini his etib Aniq tinglab o'ziga xos ravonlik bilan kuylash malakasi shakllanadi. Oddiylikdan murakkablik tomon rivolantirishda gammalar kuylash ladlarni aniq eshitish o'ziga xos templarda kuylash talabadan diqqatni jamlashni, ohangdorlikka erishishni ,uzmasdan ligatoda kuylashga olib keladi. Nafas musiqiy slux ijroning rivojlanishida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan bu mashqlar talabalarning vokal kuylash maktabining takomillashuviga olib keladi. Bu bosqichdan so'ng asar muhitiga his etish maqsad va g'oya oydinlashib boradi. Talaba keyingi vazifaga shu tariqa tayyorlanib boradi.

Fan: Vokal ijrochiligi.

4 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'ulot ishlanmasi.
6 – mashg'ulot. (4 soat)

Mavzu: Vokal malakalarini egallashda ketma-ketlik va muntazamlikka asoslanib ish ko'rish.

REJA:

- 1.Vokalizlarni nota nomi bilan kuylash.
- 2.Vokaliz va so`z bo`g`ini bilan turlicha me'yorda kuylash.

Darsning maqsadi:

Bu borada vokal ijrochilik malakalarini egallashda asta-sekinlik va muntazamlik tamoyiliga vokalizlarni nota nomi bilan kuylashda ularning nota cho`zimi sanog`i ahamiyat kasb etadi.

Darsning qisqacha bayoni:

Kuylashni boshlagan talaba tarbiyasi uchun alohida ahamiyat mazmun kasb etadi. Ovozni rivojlantirish asta–sekinlik bilan kechadigan jarayondir. Markaziy tonlardan boshlab diapazon va dinamik imkoniyatlarni hisobga olgan holda vokaliz kuylash mashqlari muntazam ravishda oddiydan murakkablikka, vazminlikdan tezlikka, musiqiy ijrochilik vazifalarini murakkablashtirish tamoyiliga asoslanadi. Vokalizlarni nota nomi yoki so`z bo`g`ini bilan turlicha ohista, tez, og`ir, o`rtacha tezlikda kuylashni o`rganish har bir talabaning oddiy yoki murakkab, yoki dramatik repertuariga asta - sekinlik bilan etib kelishi juda muhim.

Yosh xonanda ovozining shakli va kuchidan qat'iy nazar dastlabki yillarda kichik oddiy, bolalar asarlari, lirik kechinmalarni o`zida mujassam etgan ovoz mashqlari, vokalizlvr va asarlar vositasida tarbiyalash maqsadga muvofiqdir. Vokaliz yoki asarlarni so`z bo`g`ini bilan kuylash bir butunlikni tashkil etish kerak.

Fan: Vokal ijrochiligi.

4 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'ulot ishlanmasi.
7 – mashg'ulot. (2 soat)

Mavzu: Rejadagi asarlarni to'liq yoddan kuylash mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

REJA:

1. Dastur asarlarini fortopiano jo`rligida o`rganish.
2. Musiqaga va o`qituvchi ovozigaga jo`rovoqlikda kuylash.
3. Ularni o`rganib tahlil qilish.

Darsning maqsadi:

Vokal ijrochiligi fanida fortopiano jo`rligida ovoz sozlash, uni o`stirish, tondan - tonga aniq tushib kuylay olish masalasi muhimdir. Dars davomida vokaliz va stakkato mashqlarini kuylash.

Darsning qisqacha bayoni:

Dastlabki darslarda ayrim talabalar nota tovush bilan kuylashda bir oz qiynalib qoladilar. Qo`shiq ustida ishlashda dinamik belgilarga ahamiyat berish, alteratsiya belgilarga e'tibor berib kuylash talab etiladi. Shuning uchun asar ustida ishlashda unga badiiy sayqal berishga anchagina vaqt, o`rin ajratiladi. Bu borada butun diqqatni eng zarur bo`lgan vazifa qo`shiqning intonatsiyasini o`zlashtirishga to`plash kerak. Tegishli tarkib ravon yangray boshlagach diqqatni boshqa detallarga tovushning xarakteri muhim, ta'sirli joylarni aniq ravon aytish va chalishga, diktsiyani puxta o`zlashtirish kabilarga qaratish imkoniyati paydo bo`ladi. Talaba asarni dadil aytar ekan, ularda ashulani to`liq ijro etish ishonch ko`nikmalar paydo bo`ladi. O`qituvchi barcha mashq, vokaliz va asarlarni o`zi amaliy va nazariy jixatdan kuylayveradi va kuylash malakasini takomillashuviga yordam beradi.

Mavzu: Aralash pastki qovurg`a, diafragmal nafas mashqlarini

kuylash. Dastur bilan ishlash.

REJA :

1. Aralash pastki qovurg`a, diafragmal nafas mashqlar.
2. Dastur bilan ishlash.
3. Nafas mashqlarining ahamiyati.

Darsning maqsadi:

Vokal ijrochiligida aralash pastki qovurg`a - diafragmal nafas olishdan foydalaniladi. Bu usuldan foydalanib nafas mashqlarini bajarish talabalarga avval amaliy jixatdan ko`rsatib berish lozim.

Darsning qisqacha bayoni.

Bunday nafas olishda biqin va pastki qovurg`alar kengayadi, nafas olishda elkalar, ko`krak qafasi ko`tarilmasligi kerak. Mashqlar davomida nafas yuqori ko`krakda deyarli bo`lmaydi. Ularda nafas pastki diafragmaga olinib qorinning pastki qismi harakatda bo`ladi. Diafragmal nafas asarning tempida jumlalarning kata-kichigiga qarab bir maromda tez, engil, tekis chuqur olinadi. Demak nafas olishda gavda bo`yining to`g`ri va erkin holatda bo`lishi nafasning diafragmal olinishiga erishishdadir. Nafas olish tugagach qo`shiqni ijro etishga o`tiladi. Olingan asarlar vositasida nafasni pastki qovurg`aga diafragmaga olish va uni o`z o`rnida sekin - astalik bilan sarflashga o`rgatish maqsadga muvofiqdir. Unlilarni og`izni yarim yopiq holda tovushni bo`lib chiroyli shaklda chiqarish kerak, engil esnash holatidan foydalaniladi.

MAVZU: Unli undosh tovushlarni intonatsiyasi ustida ishlash.

Dastur asarlari bilan ishlash.

REJA:

1. Dastur asarlari bilan ishlash.
2. Unli va urdosh tovushlar intonatsiyasi ustida ishlash mashqlari.

Darsning maqsadi:

Vokal ijrochiligida unli va undosh tovushlarga ko`p bor duch kelinadi. Ammo kuylash mashqlarining ilk davridayoq unli va undosh tovushlarining ahamiyati ,tutgan o`rni, talaffuzni kuylashning ma'no va mazmuniga e'tiborni qaratish chuqur anglab utish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darsning qisqacha bayoni:

Har bir yakka amaliy dars dastur tovush unsurlarini kamaytirish, so`z talaffuzi kuylash malakalari, nutq madaniyatini o`stirib borish talab etiladi. Tug`ma yaxshi ovoz egasi bo`lishi mumkin. Ammo biryoqlama ovoz kuchiga ishonib intonatsiyada xato va kamchiliklar mavjud bo`lsa barcha mehnat samarasiz hisoblanadi. Vokal kuylash mahoratini tubdan egallashda har bir so`z, jumla ustida adabiy matn muzmuni yuzasidan ko`p marotaba ongli ravishda tushinib aniq burro talaffuz nafas olish, o`z - o`zini kuzatish, yutuq va kamchilikni talab etadi. Ohang jozibasi talaffuzning aniq va ravonligi intonatsiyaning o`rni dasturdagi olingan asarlarni ishlashda eng muhim muammodir. Vokal ijrochiligidagi nutq madaniyati ko`p hollarda asar qiymatini baholash mezoniga aylanib qoladi. Mahorat asar qiymatini yuksaltirish asar intonatsiyasini maromiga etkazishni taqozo etadi.

Mavzu: Talabalarning vokal kuylash qobiliyatiga qarab

vokaliz va repertuar tanlash.

REJA:

1. Talabaning vokal kuylash qobiliyati.
2. Talabaga o`ziga xos vokaliz va repertuar tanlash.

Darsning maqsadi:

Har bir talaba o`ziga xos shaxs bo`lib uning xarakter va shaxs sifatlari har xil. Shunga binoan kuylashga ishtiyoq, o`rganishda harakatchanlik, intilish, g`ayrat, xavas kabi tuyg`ular o`ziga xos fazilat hisoblanadi. Ularni yaxshi bir asar tanlatib u ustida ishlash.

Darsning qisqacha bayoni:

Tortinchoqlik, his-hayajonga beriluvchanlik ba'zan iqtidorini rivojlantirishga monelik qiladi. Bunday holatda yakka amaliy darslarda talab bilan yaqindan tanishish, unga har tomonlama ko`mak berish lozim. Bunday talabalar Bilan ohista o`rtacha tempda kuylanadigan vokaliz va asarlarni tanlashi lozim. Bu asarlarni o`rganib olgach, keyingi semestrlarda jadal, quvnoq, tantanavor, tez templi vokaliz va asarlar tavsiya etiladi. Harakatchan iqtidorli talabalar bilan ularning musiqiy idrok etish teran anglashlariga mos asarlar va vokalizlvr tanlangani ma'qul.

Musiqiy eshitish qobiliyati barqaror bo`lmagan talabalar bilan oddiy mashqlar, vokalizlar va asarlar vositasida kuylash malakalarini shakllantirishni taqozo etadi. Har bir talaba bilan ishlash jarayoni ijodiy yondashuvni, izlanishni, sabr - toqatni, kata mehnatni talab etadi. Ilova qilinayotgan mashqlar vokaliz va asarlarni puxta o`rganish orqali vokal kuylash malakalari rivojlanib boradi.

Mavzu: Tovush kuchi ovoz turiga mos mashqlar kuylash.

REJA:

1. Tovush turlari.
2. Mashqlar kuylashda ovozning ahamiyati.

Darsning maqsadi:

Ovoz tembrining eng yaxshi sifatlarini bilish uchun bir asarni frazalarga bo`lib o`rganish jarayonida tovush ohangi jarangi yoki undagi unsurlarni bilish mumkin. Mashqlar vositasida ovozning imkoniyatlarini o`rganishda ovozni to`g`ri tasnif etishda mashqlar vositasi bo`ladi.

Darsning qisqacha bayoni:

Albatta vokvl ijrochiligida yangrashi chiroyli bo`lgan o`tish va markaziy tonlarning joylashishi ham ovozni to`g`ri aniqlash va unga mos mashqlar tanlashga olib keladi. Vokal ijrochiligida quyidagi o`tish tonlari mavjud.

Tenor - mi - fa - fa birinchi oktava

Bariton - re -mi - bemol - mi birinchi oktava.

Soprano - mi - fa - fa - diez - ikkinchi oktava.

Metstso - soprano - do - diez, re, re dtez ikkinchi oktava.

Ushbu o`tish tonlarini ushlab turish qobiliyati o`quvchining ovozdagi tayanchni his etish musiqiy idrok ovozdagi diapazonining qanday ekanligiga bog`liqdir. Ilova qilinayotgan ovoz mashqlari va vokalizlar amaliy hamda nazariy jixatdan yuqorida bildirilgan mulohazalarni imkon qadar muvofiqlashuviga asos bo`la oladi.

Mavzu: Diapazonga mos mashqlar kuylash.

REJA:

1. Vokal ijrochiligi fanining muhim jihatlari nafas yo'llari haqida tushuncha.

2. Diapazonga mos mashqlar kuylash.

Darsning maqsadi:

Darsni tashkil etishda avvalo diapazonga mos mashqlar tuzimi tanlanib o'quvchilarning vokal kuylashning texnikasini o'rgatish lozim. Talabalarning badiiy did va saviyasini rivojlantirish, ularga vokal kuylash texnikasini o'rgatish ishlari bilan qo'shib olib boriladi.

Darsning qisqacha bayoni:

Kuylash malakalarini egallash vokal pedagogikasini sistematik izchillik oddiydan murakkabligicha yakka yondashuvga asoslanadi. Ovoz uchun olingan mashqlar yarim ovozda ohista aniq tonga tusha olish bilan bog'liqdir. Vokal ijrochiligi darsining muhim jihatlari nafas bilan muhim bog'liq bo'lib mashqlar kuylanishida ham, asar o'rganilganda ham nafasni o'rinli, tejamli sarflash diapazon kengligini oshirganiga olib keladi.

Ovoz tayanchini his etish nafasni pastga, qoringa olish barcha registrlarda aniq toza ovoz hosil qilib kuylash, sof intonatsiyada kuylash, ligato-stakkatoda kuylash. Musiqa asbobiga jo'r bo'la olish yoki jo'rsiz kuylash malakalarini egallash vokal ijrochiligi darsining muhim amallaridan hisoblanadi.

Mavzu: Talabalarining ovozini eshitib ko'rish.

REJA:

1. Talaba bilan tanishish.

2. Uning ovozi va diapazonini aniqlash.
3. Qisqa vokal mashqlari kuylash.

Darsning maqsadi:

Vokal bu ashula aytish demakdir. Asosan bu darsda birinchi talaba bilan suhbat va uning ovoz turi, diapazoni kengligi, nafas yo'llari, tomoq, burun va o'pka yo'llarining ahvoli suhbat tarzda va amaliy sinov yo'li bilan o'rganiladi.

Darsning qisqacha bayoni:

Har bir o'quvchi va pedagog vokal pedagogikasi tamoyillari uslubiy ko'rsatmalarini bilish va yodda tutish lozim. Vokal ijrochiligi fan sifatida oliy o'quv yurtlarida, kollej va litseylar, musiqa maktablarida o'tiladi. Nafas mashqlari ovozni o'rganish ilk bor oddiy mashqlar vositastda bajariladi.

Masalan: do major gammasini ohista yarim tovush bilan kuylanadi.

Tik turgan holatda mashqlar bajarish ovoz apparatining to'g'ri ishlatilishiga yordam beradi. Mashq bajarganda nafasni olish, havoning ko'krak qorin qismiga kirishi uni tinch va ravon sarflash lozimligi talab etiladi. O'quvchining har bir tovushni aniq kuylay olishi maqsadga muvofiqdir. Tondan-tonga aniq ko'cha olmagan hollarda do-do, re-re, mi-mi, fa-fa, sol-sol, lya-lya, si-si kabi notalar takrorlanib talaba o'zlashtirib olgunga qadar bajarilishi taqozo etiladi.

Mavzu: Sof intonatsiyada kuylash. Ovoz tayanchini his etish.

Darsning maqsadi: Sof intonatsiyada kuylash, ijroda diktsiya, artikulyatsiya qoidalariga amal qilish va ovoz apparati vazifalarini mukammal o'rganish.

REJA:

1. Sof intonatsiyada kuylash.
2. Ovoz tayanchini his etish.
3. Nutqning turlari.

Darsning qisqacha bayoni:

Vokal ijrochiligida diktsiya muhim ahamiyatga egadir. Asardagi adabiy matn mazmunini aniq, buro tarzda tinglovchiga etkazib berish vositasi diktsiya deyiladi. Vokal kuylash hoh mashqlar, vokalizlar, hoh kichik yoki katta asarlar vositasida o`rganilar ekan ijro mohiyati so`z mazmuni talaffuz sofligi musiqa va so`z uyg`unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sof intonatsiya kuylash artikulyatsiya va diktsiyaning o`zaro bog`liqligi va ularning ovoz apparatidagi vazifalarini mukammal o`rganib olishni taqozo etadi. Nutq madaniyati sahna nutqi, kundalik turmush nutqi, qo`shiqchilikdagi nutq talaffuz mazmunini teran anglash har bir kuylashni o`rganuvchi uchun maqsad va muhim vazifadir. Unli tovushlarni har kuni yopiq ovozda mashq qilish. Ovozni nojo`ya zo`riqishdan asrash. Ortiqcha toliqmaslik, asabni asrash. Vokal kuylashda templarini his etish muhimdir.

**Mavzu: Artikulyatsiya. Ovoz apparatini rivojlantirish.
Diktsiya ustida ishlash.**

REJA:

1. Artikulyatsiya va diktsiya haqida, ma'nolari.

2. Ovoz apparatini rivojlantirish.

3. Diktsiya ustida ishlash.

Darsning maqsadi:

Vokal ijrochiligida artikulyatsiya va diktsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Ular haqida ma'lumotlar beriladi. Ovoz apparatini rivojlantirish ham diktsiya va artikulyatsiyaga bog`liq.

Darsning qisqacha bayoni:

Artikulyatsiya lotincha «bo`linish» ma'nosini anglatadi. Diktsiya lotincha «nutq, aniq so`z talaffuzi ma'nosini bildiradi. Diktsiyaning aniq yoki noaniqligini artikulyatsiya apparatining faol yoki passivligiga bog`liqdir. Vokal darslarida kuylanadigan mashqlar artikulyatsiyani faollashtiradi. Masalan: pastki jag` harakatini faollashtirish uchun «na» «ma» «da» kabi bo`g`inlardan foydalanib kuylash, mashq qilish mumkin. Ovoz unli tovushlar yordamida cho`zib turiladi. Unli tovushlarni o`zlashtirishda undosh tovushlarning aniq talaffuzi muhim rol o`ynaydi. Dars jarayonida xonandaga og`iz holatining (artikulyatsiyaning) to`g`ri yoki noto`g`ri ekanligini kuzatib turish va uning xato kamchiliklarini ko`rsatib berish o`qituvchining vazifasidir. Lablarning faolligi uchun lab undoshlarini B,M,P,V,F va lab unlilari O,Yu,U tovushlaridan ku, mu, mo, yu,bu,ku kabi bo`g`inlar tuzish va kuylash mumkin. Til faolligi uchun undosh D,Z,K,L,N,R,E,J,S,Ch,Sh. Unli tovushlardan Iya,Iyo,Iyu,Ie va boshqa bo`g`inlardan mashqlar vositasida foydalanish mumkin.

Mavzu: Semestr dasturlarining badiiy va vokal kuylash talablari darajasida yoddan kuylash.

REJA:

1. Semestr davomida berilgan vokalizlarni kuylash.
2. Semestr dasturlarining badiiy va vokal kuylash talablari.

3. Ularni yoddan kuylash.

Darsning maqsadi:

Talabalar uchun mo'ljallangan vokaliz va asarlar turlicha xajmda bo'ladi. Asarlar g'ar bir talaba iqtidori ovoz diapazoni va ovoz turiga asoslanib jo'rovoz g'amkorligida bir semestr davomida vokaliz va 5 -6 ta asar, yil davomida esa 10 - 12 ta asarni mukammal o'rganish o'quv rejasiga binoan talaba tomonidan o'zlashtiriladi.

Darsning qisqacha bayoni:

Asar matnini yodlash, kuyini nota yozuvlari asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu bosqichlar o'rganilgach asarning badiiy qismi g'oyasi boyitilib rang-barang jarangdor erkin holatda to'liq kuylashga erishiladi. Bunda talaba ovozida ishonch, ohangdorlik, goh dramatik goh lirik ranglar bilan sayqallanadi. Vokalizlarni mukammal ijro etish va asarlarni to'liq atroflicha o'rganib, jarayoni o'ziga xos nozik va muhim tajriba mehnat namunasiga aylanadi. Ovoz va so'z matni musiqiy birlik jo'r ovoz bilan hamohanglik ijroda mahorat namunasi mujassam bo'lganda o'rganishga bo'lgan sabr-toqat harakat zoya ketmaganligi o'quvchida mamnunlik kayfiyatini ifodalaydi. Eng asosiysi oldinga qo'yilgan maqsad amalga oshgani kuylash mahoratidan dalolat hisoblanadi.

**Mavzu: Ravon, jarangdor, tiniq kuylashga erishish.
Dasturdagi asarlar bilan ishlash.**

REJA:

1. Ravon, jorandor, tiniq kuylashga erishish.
2. Dasturdagi asarlar bilan ishlash.

Darsning maqsadi:

Ovoz turi va diapazon kengligiga mos tanlangan asarni mukammal o'rganishda (kuylashda) tayanch iboralariga asoslanadi. Kuy qo'shiq, xotira matn, kuyga tur bo'lish va ovoz.

Darsning qisqacha bayoni:

Vokal ijrochiligi fanida olingan har bir asarning avvalo so'z matni o'rganiladi. So'z matni mavzusi milliy g'oyasi, tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Kompazitor so'z matni mazmunini ifodalovchi kuy bastalaydi. Ijrochi esa shoir va kompazitorning yaratgan asariga ton ko'tarinki ruh bahsh etib ravon tilda jarangdor va tiniq ovozda kuylashga harakat qiladi. Masalan: Avazbek Mallaboev musiqasi Zamira Ro'zieva she'ri bilan aytiladigan «Vatan himoyachilari qo'shig'i» bunga misol Ona Vatanni himoya qilish, uni avaylab asrash, mislsiz kuch g'ayrat, sergaklik hushyorlik, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini baxsh etadi.

Bunday yuksak ijro mahorati uchun vokal ko'nikmalarini egallash nafas olishni o'rinli sarflash, artikulyatsiya va diktsiya holatlarini yaxshi o'zlashtirib olishni taqozo etadi.

Mavzu: Vokal kuylash malakalarini rivojlantirish va mustaxkamlash.

REJA:

1. Vokal kuylash malakalarining ahamiyati.
2. Vokani rivojlantirish va mustaxkamlash.

Darsning maqsadi:

Vokal xor malakalari ovoz kuchi, lirik va dramatik kuchlanish, ovoz kuchlanganligi, ovoz chidamliligi, ovoz barqarorligi, ovoz sozlash, artikulyatsiya va diktsiya mashqlari.

Darsning qisqacha bayoni:

Vokal xor malakalari, etarli diapazon mutatsiya ovoz kuchi chiroyli tembr. Ijrochilikka moyillik qobiliyatiga ma'lum ovoz balandligi (diapazonga) yuqimli tembrga lirik va dramatik kichik yoki katta kuchlanishga ega bo'lgan ovozlar vokal kuylashga monand ovozlardir. Masalan: etarli diapazon-chiroyli tembr, ovoz kuchlanganligi, ovoz barqarorligi, ovoz chidamliligi kabilardir.

Vokal kuylash malakalarini rivojlantirish borasida avvalo yakka holatda talabaning ovoz turi, diapazon kengligi ovoz apparatining sog'ligi va boshqalar o'rganiladi.

Talabaning vokal qobiliyatini asta- ekin muntazam, nihoyatda samarali rivojlantirishga erishish maqsadga muvofiqdir. 45 daqiqa berilgan vaqtning 20-25 daqiqasi ovoz sozlash, artikulyatsiya va diktsiya mashqlari, vokalizlar kuylash, nafasni o'rinli tejamli sarflash kabi vokal texnikasini o'rganishga sarflash lozim. Bu daqiqalarda ovoz zo'riqmasligi, talaba toliqib qolmasligi uchun yarim ovozda mashqlar olib boriladi. Dars jarayonida o'ta yuqori va o'ta past tonlarni ishlatmaslik zarur. Xonandaning vokal texnikasi rivojlanishi badiiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Musiqiy mushohada badiiy did keng ma'noda vokal qobiliyatini rivojlantirish va tarbiyalashga olib keladi. Demak mashg'ulotlarning barcha bosqichlari, badiiy rivojlanish texnik rivoj bilan uzviy birlikda bo'lishi lozim. Bunday yondashuv vokal kuylash malakalarini rivojlantiradi va mustaxkamlaydi.

Fan -“vokal ijrochiligi” (yakka tartib) 3 – bosqich talabalari uchun amaliy mashg'ulot dars ishlanmasi.

1 – mashg'ulot (6 – soat)

MAVZU: *Notaga qarab mashqlar kuylash, asarlarni musiqa jo'rligida kuylash.*

REJA;

1. Berilgan asarlarga mos mashqlar tanlash.
2. Asarlardan bittasini musiqa jo'rligida kuylash.
3. Talabaga vazifa berish.

1. Mashg'ulotning kirish qismi:

Vokal darsida “ovoz sozlash” asosiy rol o'ynaydi. Ovoz sozlash mashqlari 10 – 15 minut, ayrim hollarda 20 – 25 minut davomida o'tiladi. Ovoz sozlash mashqlari har bir mashg'ulotda o'tishi shart. Ovoz sozlash mashqlari, kuylanadigan asar diapazoniga moslab o'tiladi, ya'ni shu asarning eng past notasi va eng yuqori notasi darajasida kuylanadi. Bu mashg'ulotda “Ona yurtim” (S.Jalil musiqasi) qo'shig'i o'rganiladi. Bu qo'shiqning eng rastki notasi birinchi oktava “re” notasidan boshlanadi va avj qismi 2- oktava “re” notasigacha etadi. SHuning uchun mana shu diapazon oralig'ida ovoz sozlash mashqlari o'tilishi kerak.

2. Asosiy qism : Asarlardan bittasini musiqa jo'rligida kuylashga o'rganish. Bugungi mashg'ulotda “ Ona yurtim “ qo'shig'ini kuylashni o'rganish talab etiladi. Oldin shu asar mualliflari tanishtiriladi va uning matni o'rganiladi.

Asar uch qismga bo'lib o'rganiladi. Birinchi qismida ashula boshlanishida ozgina murakkab joylariga e'tibor beriladi. Masalan, “Olam aro yurtlarning eng a'losi “ deb boshlanadigan qismida “eng a'losi “ degan bo'lakchasi sal murakkabroq aytiladi. SHuning uchun o'sha joyi sal ko'proq mashq qilinadi.

Asarning ikkinchi qismi avj qismi ikkinchi oktava “ re “ notasigacha kuylanadi. “ Tolei yor aytaymi , jonim o'lkam “ deb boshlanuvchi 2- qismida “ Tolei yor “ so'zlarini aniq aytishga e'tibor berish zarur, aks holda bu boshqacha eshitiladi.

2 – qismida 3 – qatori kuylanayotganda ovoz kuchini juda pasaytirib kuylashga to'g'ri keladi va o'u orqali obrazlikka erishiladi. Asarning uchinchi qismi ham xuddi 2- qismga o'xshab kuylanadi. Bu qismida ham 1-2 qatorlari kuchli aytiladi va 3 – qatori esa sekin kuylanadi.

3. YAkuniy qism: “ Talabaga vazifa berish ”:

Bugungi mashg'ulot orqali olgan bilimlarini mustahkamlash vazifa qilib beriladi. Talaba shu asarni 2 ta qismini yodlab o'rganib kelishi kerak bo'ladi.

Fan: “ Vokal ijrochiligi (yakka tartib)

3 – bosqich talabalari uchun amaliy mashg'ulot dars ishlanmasi.

2 – mashg'ulot (4 – soat)

**MAVZU: Asarlarni qismlarga bo'lib o'rganish, frazala ,
urg'ular ustida ishlash.**

REJA:

1. Ovoz sozlash mashqlari.
2. Asarlardan bittasini qismlarga bo'lib o'rganish va fraza , urg'ularga e'tibor berish.
3. Talabaga vazifa topshirish.

1 – Mashg'ulotning kirish qismi.

Mashg'ulotni doimo ovoz sozlash mashqlari bilan boshlaymiz.

- 1- Mashq Do, re, mi, re, do mashqini 1- 1,5 oktava oralig'ida pastdan tepaga ko'tarib beramiz.
- 2- Mashq . Mi - i – i – i , e – e – e – e , yo – o – o – o mashqini ham shu tarzda ijro qilinadi.
- 3- Mashq. Da, de, di, do, du mashqini bir pog'onadan 1- 1,5 oktava oralig'ida pastdan tepaga, tepadan pastga tomon kuylaymiz.
- 4- Mashq. Bitta major gammasini ligato hamda stakato usulida kuylaymiz.

SHu bilan ovoz sozlash mashqlarini yakunlab mashg'ulotning asosiy qismiga tayyorgarlik ko'ramiz.

2. Asosiy qism: Asarlardan bittasini qismlarga bo'lib o'rganish fraza, urg'ularga e'tibor berish.

Bu mashg'ulotda “Alla” qo'shig'i asari o'rganiladi. Bu qo'shiqni she'rini Z.Obidov. musiqasini A.Muxammedov. bastalagan. Asarni ijro etishda ijrochidan nafas yo'llarini mustaxkamlash, ovozni zo'riqtirmaslik hamda engil, mayin ijro eta olish talab qilinadi.Qo'shiqni avjini bir oz hayajon bilan kuylash lozim.

Umuman asar katta his tuyg'u bilan ijro etilishi kerak. Qo'shiq o'rtacha diapazonli ayollar ovoziga moslangan bo'lib, mayin lirik xarakterga egadir.Demak bu asarni 4 qismga bo'lib o'tish kerak. Asarning birinchi qismi 1- oktava “re” notasidan boshlanadi va yuqori qismi “lya” notasigacha etadi va qo'shiqning har bir qatori juda engil aytilishi kerak bo'ladi.

Avj qismi esa 2- oktava “do” notasidan “re” notasiga o'tib ohanglar o'zgarishi ro'y beradi ya'ni si bemol notasi bekar belgisi orqali o'zgaradi. SHu joyini alohida e'tibor bilan urg'u berib aytish talab qilinadi. Qo'shiqni oxirgi qismi og'izni yumib kuylanadi.Unda ham ovoz chiqarish o'ziga xos mahoratni talab qiladi.

3 – YAkuniy qism: Talabaga vazifa berish: mashg'ulotni mustahkamlab Talabaga bugungi asar so'zlarini talaffuzini yaxshilab o'rganish va ohanglarni mustaqil mashq qilish topshiriladi.

Fan: Vokal ijrochiligi.

3–bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'lot dars ishlanmasi.

3 – Mashg'ulot (4-soat)

Mavzu: Asar xarakteri g'oyaviy mazmunini his etib erkin kuylash.

REJA:

- 1.Ovoz sozlash mashqlari.
- 2.Dasturdagi bitta asarni tahlil qilib uni kuylashni o'rganish.
- 3.Talabaga vazifa belgilash.

1.Mashg'ulotning kirish qismi.

Bu mashg'ulotda vatanni madh etuvchi Nadim Norxo'jaev musiqasi, Habib Rahmat she'riga "Diyor madhi" qo'shig'i o'rganiladi. SHuning uchun bu asarga xos bo'lgan ovoz sozlash mashqlari o'tiladi. (ko'proq)

1-mashq. " mi –i – i – i – yo " ni yarim tondan pastdan yuqoriga ko'tarib boramiz va yana orqaga qaytamiz.

2 –mashq. "Ovozimni sozlayman" so'zlarini musiqiy ohangga solib kuylab uni ham yarim tondan ko'tarib, keyin pastki pardalarga olib tushamiz. Qaysi notadan boshlab qaysi nota pardasida tugallash har bir ijrochining imkoniyatiga bog'liq.

3 –mashq. Do major va re major gammalari kuylanadi, chunki o'rganiladigan asarning boshlang'ich pardasi 1-oktava "re" va yuqori pardasi 2-oktava "re" notasidir.

2 – asosiy qism: Asar xarakteri va g'oyaviy mazmunini his etib erkin kuylash. Bu mashg'ulotda "Diyor madhi" qo'shig'i tahlil qilinib, uning xarakteri va g'oyaviy mazmuni his etilib kuylanishi lozim.

Asarning so'z matni manosi Ona-vatan kelajagi haqida, uning tarixi, uning dunyodagi o'rni va buyukligi haqidadir.

" Ona - vatan ertasi
Kelajakning mevasi
Bilim xunar egasi
Biz bo'lamiz albatta

Niyatlar ulkan katta" deb boshlanadigan bu asar juda sodda va ravon yozilgan. Asar 4-qismdan iborat. Musiqasi ham o'ziga mos qilib yozilgan. O'rganuvchi ham juda osonlik bilan qabul qiladi. Asar o'rtacha tezlikda yozilgan, marsh tempida. Bu asarni yigitlar ham qizlar ham kuylasa bo'laveradi. Bu qo'shiqni ohangini, so'zlarini ma'nosini his qilib kuylash lozim, shunda uning xarakteri ochiladi.

3 – YAkuniy qism: Talabaga topshiriq berish.

Talabadan shu asarni yanada yaxshilab o'rganish va uni me'yoriga etkazib kuylash talab qilinadi. Iloji boricha shu asar kuyini talaba o'zi fortopianoda chalib o'rganib o'zi ijro qilsa talabga muvofiq bo'ladi.

Fan: Vokal ijrochiligi.

3-bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'ulot dars ishlanmasi.

4– mashg'ulot (6 soat)

Mavzu: Til, jag', yumshoq tanglay, lablarni to'g'ri ishlatish, dastur asarlarini o'rganish.

Reja:

1. Ovoz sozlash mashqlari.
2. Dastur asarlarini o'rganishda ovoz chiqarish apparatlaridan to'g'ri foydalanish.
3. Talabaga topshiriq berish.

1. Mashg'ulotning kirish qismi.

Mashg'ulot har doimgidek ovoz sozlash mashqlari bilan boshlanadi.

- 1- mashq. Ovozni yumgan holda bir necha mashqlar bojariladi. (m-m-m) usulda.
- 2- mashq. M – m – m – m – e – e – e – yo – o – o – o – o mashqi bajariladi .
- 3- mashq. “ Bog'da bulbul sayraydi, tinglab ko'nglim yayraydi “ variantini yarim tondan ko'tarib yuqoriga va yarim tondan pastga tushirib kuylaymiz.
- 4- mashq. Major gammasidan 2 ta kuylaymiz . Ovoz sozlashga kamida 10 – 15 minut sarflaymiz.

2 – Asosiy qism:

O'rgatiladigan asar – “Sayohat rohat” qo'shig'i P.Mo'min she'ri, D. Zokirov musiqasi. Asar quvnoq xarakterda yozilgan, uni ko'tarinki kayfiyatda ijro etish kerak. Qo'shiqning daromad qismidagi har ikki taktning birinchi notasi, naqorat qismida esa birinchi taktning notasi ozroq zarb (akcent) berib kuyulanadi.

Bir musiqa jumlasidan ikkinchi musiqa jumlasiga o'tishda va shu jumlar o'rtasida uchraydigan kvarta, kvinta va septima oraliqlar – intervallarni kuylash ijrochining shu oraliqlarni aniq talaffuz qilish malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Qo'shiq matni: Do'stim yur tezroq sayr etaylik bir
 Elni o'rganmoq, o'zi maktabdur
 YUraylik yayov, havo top – toza
 Bepoyon yaylov, quraylik rosa

Naqorat: Bahorda yozda qilsak sayohat
 Kuzda, ayozda jonlarga rohat
 Eng yaxshi odat – sayohat rohat
 Rohat sayohat rohat.

Har narsa go'yo berganday so'roq
SHarqirar dunyo, kel der dala, bog'
Qancha ko'p ko'rsak ilmimiz oshar
Sog'lom, dovyurak bo'lmoq yarashar

Qo'shiq matni juda sodda , ravon yozilgan bo'lib , buni xor bo'lib yoki yakka holda kuylash mumkin. “Do'stim yur tezroq sayr etaylik bir” degan birinchi qatorda to'rtta joyda “ R ” harfi uchraydi , o'zi bu asarda “R” harfi juda ko'p.

SHu harfni talaffuz qilish uchun til va yumshoq tanglay asosiy rol o'ynaydi. Mana shu asardagi so'zlarni to'g'ri ravon talaffuz qilish uchun til, jag', yumshoq tanglay va lablarni to'g'ri ishlatishga e'tibor beriladi.

Bu asar “Fa” birinchi oktavadan boshlanib, avj qismi 2- oktava “Re” notasigacha etadi va 1- oktava “Re” notasida tugaydi.

3 – YAkuniy qism: Talabaga vazifa berish:

Talabaga bugungi mashg'ulotni mustahkamlash qo'shiq matni va kuyini o'rganish vazifasi topshiriladi.

Qo'shiq matnini kuylayotganda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga e'tibor qilish aytiladi.

Fan: Vokal ijrochiligi.

3 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'ulot ishlanmasi.

5 – mashg'ulot. (4 soat)

Mavzu: Mayin, ohista, qattiq, keskin tovush hujumlarini qo'llash.

REJA:

1. Ovoz sozlash mashqlari.
2. “Omon yor” qo'shig'ida ovoz hujumlarini ishlatish.
3. Talabaga mashg'ulot bo'yicha topshiriq berish.

1. Mashg'ulotning kirish qismi:

Mashg'ulotning ovoz sozlash qismida ham “mayin, ohista, qattiq keskin” – tovush hujumlarni qo'llash qoidalari o'tiladi.

1 – Mashg'ulotning kirish qismi:

Mashg'ulotning ovoz sozlash qismida ham “mayin, ohista, qattiq keskin” tovush hujumlarni qo'llash qoidalari o'tiladi.

1 – mashq: do – re – mi – re – do oraliq 1 tondan bu mashqni sekin boshlab yarim tondan ko'tarib boramiz va uni yarimida ovozni kuchaytirib aytamiz, oxirida juda kuchli ovozda kuylaymiz. Orqaga qaytganda uning aksini ishlaymiz.

2 – mashq: YArim mashqni ovozni sekinlatib og'izni yumgan holda va keyin og'izni ochib ovozni kuchaytirgan holda mashq qilish.

3 – mashq: 1 ta mo'jor va 1 ta minor gammalaridan kuylash.

Ovoz sozlash mashqlari ovoz hujumlari qoidalari orqali bajariladi.

2 – Asosiy qism: O'zbek xalq qo'shig'i “Omon yor” T. Toshmatov - fortopiano va akademik ijroga moslashtirgan.

Jon uka , Andijonlik uka, omon yor
(O...) Seni qaddi – bo'yingdan, omon yor
Eshik oldi gul hovuz, omon yor
(O...) Gul tergani kelganmiz, omon yor
Gulni bahona qilib, omon yor
(O...) YOr ko'rgani kelganmiz, omon yor.
Jon ukam Farg'onalik ukam, omon yor
(O...) Seni qaddi – bo'yingdan, omon yor.

Ushbu ommaviy xalq qo'shig'i o'rta balandlikdagi ovozlar uchun mo'ljallangan bo'lib, ma'lum xonandalik malakasini egallagan talabalar uchun tavsiya etiladi. Bu qo'shiq xonandaning nafasini mustahkamlaydi va ovoz jarangdorligini oshiradi.

Jumla boshida beriladigan urg'u xonandaning “ovoz hujumi” ning shakllanishiga ko'maklashadi. Qo'shiqni kuylaganda uning milliy bezaklarini saqlab qolishga alohida e'tibor berish lozim.

Qo'shiqning har bir qismining boshlanishi keskin tovush hujumi bilan kuylanishi kerak. Keyingi 2 qatori bir oz sekinroq kuylanishi kerak.

Qo'shiqning boshlang'ich qismi 2 – oktava “do” notasidan boshlanib 1 – oktava “re” notasiga kelib tushadi. O'zbek milliy qo'shiqchiligida bunday holatlar ham uchrab turadi, chunki qo'shiq kuylar asosan pastki notadan tepaga qarab intiladi.

3 – YAkuniy qism: Talabaga vazifa berish.

Bugungi mashg'ulotni mustahkamlash, ovoz hujumlari to'g'risida tushuncha hosil qilish va shunga qo'shimcha material izlanish talab qilinadi. Qo'shiqni tekstini yodlash, kuyini o'rganib kelish vazifasi belgilanadi.

Fan: Vokal ijrochiligi.

3 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'ulot ishlanmasi.

6- Mashg'ulot (6 soat)

Mavzu: Lirik, dramatik, tantanavor kuylash malakalari ustida ishlash.

REJA:

1. Ovoz sozlash mashqlari .
2. Lirik tenor ovozga xos bo'lgan “Maftun bo'ldim” qo'shig'ini o'rganish.

3. Talabaga vazifa belgilash.

1 – Mashg'ulotning kirish qismi .

Mashg'ulotning kirish qismi doimo ovoz sozlash mashqlari bilan boshlanadi.

1-mashq: mi – i – i – i , e – e – e – e , yo – o – o – o mashqini ijro qilamiz.

2-mashq: do – re – mi – re – do mashqini ijro qilamiz.

3-mashq: “Bulbulcham”, “YOmg'ir yog'aloq” qo'shiqlaridan ovoz sozlash uchun foydalanamiz .

4-mashq: Do major va re major gammalarini kuylaymiz.

Undan boshqa kichik – kichik asarlardan ovoz sozlash uchun foydalansa bo'ladi.

2 – Asosiy qism:

Lirik tenor ovozga xos bo'lgan “Maftun bo'ldim” qo'shig'ini o'rganish.

T.To'la she'ri Maftun bo'ldim M.Burxonov musiqasi.

YOri jonim

Mehribonim, jonon!

Guluzorim,

Kel nigorim, jonon

Maftun bo'ldim, maftun buldim,

Go'zal bir jononga.

Maftun bo'ldim, jondan aziz,

Xumor ko'z jononga.

Senda doim.

Fikru yodim jonon

YOri jonim

Sen murodim, jonon.

Maftun bo'ldim, maftun bo'ldim

Go'zal bir jononga.

Maftun bo'ldim, jondan aziz

Xumor ko'z jononga.

Ushbu asar ritm jihatidan ancha murakkab bo'lib, ijrochidan katta mahorat va mehnat talab qiladi. Ayniqsa qo'shiqning so'zsiz qismi ovoz chiroyiga sayqal berishga, nafas cho'zimini kengaytirishga yordam beradi.

Mazkur qo'shiq ijrochilik malakalarini ma'lum darajada o'zlashtirgan lirik tenor ovozlarga tavsifa etiladi.

3 – YAkuniy qism: Talabaga vazifa belgilash:

Bugungi mashg'ulotni yakunlab, talabaga jumladan shunday vazifalar topshiriladi: Qo'shiq tekstini yod olish, musiqasini o'rganish va uning melodiyesi notalarini fortopianoda chalib ijro qilish.

Fan: Vokal ijrochiligi.

3 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'ulot dars ishlanmasi.

7 – Mashg'ulot (6 soat)

Mavzu: *Dasturdagi asarlar bilan ishlash, obralikka erishish.*

REJA:

1. Ovoz sozlash mashqlari.

2. Dasturdagi asarlardan - “Istiqlol haqida qo'shiq” asarini o'rganish.

3. Talabaga vazifa belgilash.

1 – Mashg'ulotning kirish qismi:

Mashg'ulot ovoz sozlash mashqlari bilan boshlanadi.

1-mashq: Do – re – mi – re – mi – do mashqlarini ijro qilishda sekin mayin kuylashga erishish .

2-mashq: Kichik – kichik asarlardan ovoz sozlash uchun foydalanish.

3-mashq: Major va minor gammalaridan 2 tasini ijro qilish.

4-mashq: Boshqa har xil talaffuzlar orqali ovoz sozlash mashqlaridan foydalanish.

2 – Asosiy qism: Dasturdagi asarlardan “ Istiqlol haqida qo'shiq” ni o'rganish, obrazlikka erishish. A.Qo'ldoshev she'ri, Q.Mamirov musiqasi.

Ey muqaddas To'ron, ey qutlug' makon

Senda ziyo topdi har aqli urfon

Jahongir Temurning ruhi senga yor

Adolatning tug'i bo'ldi barqaror.

Naqorat:

YAsha O'zbekiston istiqlol yasha

Aziz xalqim, baxting kulsin hamisha

Kelajaging to'lsin nur, istiqbolga

Avlodlaring etaversin kamolga!

Keldi yorug' kunlar o'zbek eliga

Ega bo'ldi o'z erkiga tiliga

Ilmu – fanning ochib oltin sandig'in

Kalitini berdi yurtning qo'liga.

Bu qo'shiq marsh tempida yozilgan bo'lib 3 ovozli qilib ijro etiladi va bu qo'shiqni solist ijro qilsa ham bo'ladi, ayniqsa bu bariton ovozga to'g'ri keladi.

3 – YAkuniy qism:

Talabaga shu asarni yodlab o'rganish vazifa qilib topshiriladi.

Fan: Vokal ijrochiligi.

3–bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg'ulot dars ishlanmasi.

8 – Mashg'ulot (6 soat)

Mavzu: Ovoz kuchi, diapazonini o'stirish mashqlari.

Dastur asarlari bilan ishlash.

REJA:

1. Ovoz sozlash mashqlari.

2. “Mirzacho’l yor-yori” qo’shig’ini o’rganish.
3. Talabaga vazifa belgilash.

1 – Mashg’ulotning kirish qismi.

Ovoz sozlash mashqlari:

1-mashq : mi – i – i – i, e – e – e – e, yo – o – o – o mashqini ijro qilishda harf talaffuzlarini to’g’ri aytish va ovoznı to’liq chiqarish va har bir frazani bir nafasda uzmasdan kuylashga erishish .

2-mashq: Do – re – mi – re – do musiqiy tovushlarni har xil variantlarda kuylash.

3-mashq: Kichik – kichik asarlardan fragmentlar kuylash.

4-mashq: Major va minor gammalaridan 2 – 3 tasini kuylash.

2 – Mashg’ulotning asosiy qismi :

SHomuxammedov she’ri G’ .Qodirov musiqasi.“ Mirzacho’l yor – yori”

Peshonamni yaltiratgan cho’l shamoli yor – yor

YUragimni zirqiratgan yor jamoli yor – yor

deb boshlanuvchi bu qo’shiq 60 – yillarda yaratilgan. Mazkur asar xonanda ayollar ovozi uchun mo’ljallangan zamonaviy yor – yordir. U sho’h, o’ynoqi estrada qo’shiqlari xarakteriga ega. Bu qo’shiqni ijro etayotganda nafasni qisqa va keskin olib, har bir so’zni alohida ta’kidlab kuylash lozim. Qo’shiqni jozibali kuylash uchun ma’lum texnik qiyinchiliklarni bartaraf qilish, ya’ni o’noltilik notalarda so’zlarni tez va aniq talaffuz qilish vokaliz (so’zsiz) qismida ovoznı erkin chiqarib kuylash vokalizdan keyingi qismini past ovozda burro qilib kuylash talab etiladi .

3 – qism: Talabadan bugungi mashg’ulotni yanada puxta o’rganish talab etiladi.

Fan: Vokal ijrochiligi.

3 – bosqich talabalari uchun yakka tartib amaliy mashg’ulot dars ishlanmasi.

9 – Mashg’ulot (6 soat)

Mavzu: *Interval va akkordlarni intonauiya qilish.*

Dastur asarlari bilan ishlash

REJA:

1. Ovoz sozlash mashqlarini kuylash .

2. Dasturdagi “CHilonzor” qo’shig’ini o’rganish va shu asarda uchraydigan intervallarga e’tibor berish.
3. Talabaga vazifa belgilash.

1 – Mashg’ulotning kirish qismi: Ovoz sozlash mashqlari .

1-mashq: Do – re – mi – re – do mashqlarini kuylashda yumshoq, mayin va kuchli ohanglarda ijro etishga erishish.

2-mashq: Do – mi – solb intervalida mashqlar kuylash.

3-mashq: Major va minor gammalaridan 2 tasini kuylash.

4-mashq: Kichik – kichik asarlardan ovoz sozlash mashqlarida foydalanish.

Ovoz sozlash mashqlariga 15 – 20 minut vaqt sarflanadi.

2 – Asosiy qism: Oymirzaev she’ri F.Nazarov musiqasi.

“ CHilonzor “

Ey do’stlar Toshkentda bo’lsangiz mehmon

Kutib olajakman sizlarni shodon

YAshnatib har yonni ekib gul – lolalar

Qurganman bir shahar - nurli oshyon.

Quvnoq shahrim, go’zal CHilonzor

Sen aziz umimda misoli bahor

Ko’rkam chamanzor, obod CHilonzor

Sen aziz umrimda misoli bahor.

Bu asar qo’shiqchilik sohasiga endigina kirib kelayotgan talabalarga vokal malakalarini o’rganishda, rivojlantirishda yordam beradi. Ijrochining so’zlarni baralla aytib, engil va ravon ovoz hosil qilishga ko’maklashadi. Naqoratdagi kvarta intervali ovoz tayanchini mustahkamlaydi. Bu interval naqoratdagi “quvnoq va go’zal” so’zlariga to’g’ri keladi, ya’ni har bir bo’g’in orasi kvarta intervaliga to’g’ri keladi.

Bu intervalni to’g’ri kuylash ozroq mahoratni talab qiladi.

3 – YAkuniy qism: Talabaga vazifa berish.

Bugungi mashg’ulotlar orqali talabaga bu mashqlarni mustahkamlash, ularni yod olish va o’zi shu kuyni ohanglarini fortopianoda o’rganish vazifalari topshiriladi.

4-kurs uchun

1-MASHG’ULOT

**Mavzu: “Ovoz turi, kuchi, diapozoniga mos vokaliz
va asarlar tanlash” (4 soat).**

REJA:

1. Talabaning ovoz turini aniqlash.
2. Diapozonga mos ovoz mashqlarini kuylash.
3. Ashulachilik apparati ustida ishlash.
4. Vokaliklar va asarlarni tanlash.

1. Talabaning ovoz turini aniqlashda eng avvalo tayanch iboralariga e'tiborni qaratishi lozim. O'quvchidagi vokal xor malakalari, etarli diapozon, ovoz kuchi, chiroyli tembr va boshqalar. Oddiy do major gammasini yarim ovozda kulash talaba uchun qulaydir. Dars avvalida birga mashqlarni zo'riqmasdan, baqirmasdan ovozni ortiqcha kuchanishdan asragan holda mashqlar kuylanadi. Talabaning kayfiyatini, nafas yo'llarining sog'ligini o'qituvchi kuzatib borishi lozim.

2. Tondan-tonga aniq kuchga olish aniqlangandan so'ng diapozon kengligini aniqlash mashqlariga o'tiladi. har qanday vaziyatda ham talabaga uddalay olishi haqida ishonch umid berish lozim.

Diapozonga mos ovoz mashqlarini oddiydan-murakkablik tomon yo'naltiradi.

3. Ashulachilik apparati ustida ishlash. Ovoz apparati tomoq, hiqildoq, halqum, nafas ravoni, ovoz pardalari, rezonatorlar va mushaklardan iborat. Nafas orqali chiqayotgan havo hiqildog'dagi tog'aylar orasida tortishgan ovoz pardalariga urilib tebranadi va ovoz chiqaradi. Mashqlarda yuqoridagilarni to'liq his etib kuylash lozim.

4. Vokalizlar va asarlar talaba imkoniyatiga qarab tanlanadi (ilova).

1) "Ona yurtim". S.Jalil musiqasi, M.Karimov she'ri. Asarda ona vatanni madh etish; so'z va musiqa birligiga erishish; tallaffuzda aniq va burrolikka erishish; jarangdor tantanavor ohangda kuylash; badiiy jummalarni ijro mahorati va yuksak saviyada kuylash maqsad qilib olinadi.

Bu asarni avvalo frazalarga bo'lib o'rganish, nazariy hamda amaliy jihatdan o'qituvchi va talaba hamda jo'rnas bilan hamkorlikda muntazam kuylash orqali ijro malakalarini takomillashtirishni taqazo etadi.

2) FABT. Vokaliz. Ushbu vokaliz vazmin tempda yozilgan bo'lib, 4/4 o'lchovda yarimtalik, choraktalik hamda butun notalar va pauzalar mavjudligini ko'ramiz. Bunday vokalizlar bilan ishlashda artikulyatsiya, diktsiya va intonatsiyaga nafasga e'tibor qaratiladi.

3) T.Jalilov musiqasi, O.Obidjon ariyasi ham o'ziga xos ijro mahoratini talab etiladi. Talaffuz aniqligi so'z va musiqa birligi nafasni olish va sarflashda o'ziga xos dramatik holatni ovozda berilishi muhimdir.

4) A.Muhammedov musiqasi, hosiyat ariyasi. To'liq dramatik holat, ichki ruhiy kechinma obrazli kuylash, manafas maromiga diqqatni qaratishni taqazo etadi.

2-MASHG'ULOT

Mavzu: "Asarlar mazmuni, mualliflari haqida ma'lumotlar bilan tanishtirish" (4 soat).

REJA:

1. Asar muallifi haqida tushuncha berish.
2. Asar mazmuni, tempi, o'lchovi, g'oyasi haqida.
3. Asarning tarbiyaviy ahamiyati.

1. Har bir talaba uchun tanlangan asarlar mazmuni, milliy g'oya va mazmunga egadir. Mustaqillikdan so'ng ayniqsa, milliy musiqali dramatik asarlar uchun yozilgan ariyalarga qiziqish, o'zbek bastakorlarining ijodi va faoliyati barcha avlodlar uchun qadrlidir. Shunday buyuk bastakorlardan biri To'xtasin Jalilovdir. Shu kunlargaacha sevib kuylanadigan "Tohir va Zuhro", "Nurxon", "Ravshan va Zulhumor", "Xolisxon", Alpomish", "Muqimiy" kabi (musiqali dramasiga) dramalariga musiqa bastalagan. To'xtasin Jalilov nomi e'zozlanib kelinyapti. Uning bizga qoldirgan boy musiqa merosi bugungi kungacha yoshlar tomonidan e'zozlanib o'rganilmoqda.

2. Asar mazmuni tempi, o'lchovi va g'oyasi haqida.

"Nurxon" musiqali dramasiidagi Nurxon ariyasi moderato tempida 4/4 o'lchov birligida yozilgan. G'oyasi o'z muhabbatiga sadoqatli bo'lish qanchalar qarshiliklar ko'rsatilsa ham qaydarga bo'lgan muhabbatini so'nmasligi.

Milliy tarbiya topgan, so'zida va'dasida yolg'on bo'lmagan sof sevgi uchun kurash. Manzaralarini ko'ramiz. Asarni ijro etishda Nurxon holatini ichki ruhiy holatini teran his etish lozim. Ovozda dardni nola fig'onni bera olish asar mazmunini yoritish asosiy maqsaddir. Asar soprano ovoz uchun yozilgan. Ijro mahorati, yuksak darajadagi nafis did, teran musiqiy idrok, so'z va musiqa uyg'unligiga erishishi jo'rnavoz va ijrochining hamkorligi asosiy o'rin egallaydi. O'qituvchi talaba bilan ishlash jarayonida ariyani chalib, kuylab, asar mazmunini tushuntirib o'tadi. Chunki, bir ariyada bir butun asarning maqsadini yaratishdek katta ma'suliyat mavjuddir.

Asar boshlanadi – f-m-s joylarida ovozda asar kulminatsiyasi bajarilishiga erishish kerak.

3. Asarning tarbiyaviy ahamiyati.

Nurxon o'zbek qizi. Erk, milliy ovozlik hurlikka intilish. Orzu umidlar bilan ayollik, insoniylik uchun kurashgan. Do'g', po'psa, qo'rqitishlar uni o'z yo'lidan chalg'itmadi. Ammo, aldov bilan yolg'on uning hayotiga no'qta qo'ydi. Asar ijrosida butun bir dramaning mazmunini his etib etishni talab etadi.

3-MASHG'ULOT

Mavzu: "Kuylashda vokal-texnikasini o'zlashtirish malakalari ustida ishlash" (4 soat).

REJA:

1. Kuylash texnikasini o'rganish.
2. Badiiylikka erishish.
3. Vokal kuylash malakalarini egallash.

1. Talaba bilan ishlash jarayonida kuylash apparatini o'rganish, ijrochilik texnikasini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ovoz apparati jag', lab, yumshoq tanglay, tomoq, hiqudoq, halqum, nafas ravoni, ovoz bog'lamlari, rezonatorlar mushaklarning harakatlanishi ovoz hosil qilishga erishish, kuylash texnikasini o'rganishda bevosita ishtirok etadigan organlar hisoblanadi. Ularni unli va undosh tovushlar vositasida ovoz hosil qilish uni tarbiyalash tayanchni to'la his etish kuylab mehnat va talablarga rioya qilish orqali erishiladi.

Yarim ovozda sekin-asta oddiydan murakkab mashqlarni maromida kuylashga erishish. Ovozni zo'riqtirmasdan kuylash texnikasini o'rganish demakdir.

2. Badiiy ijroga erishish.

Asarni maromiga etkazib kuylash uchun avvalo kuylash texnikasini puxta o'rganish ovozni asrash unga badiiy sayqal berish imkoniyatini beradi. Olingan asarni badiiy jihatdan maromiga etkazib kuylash ovoz tayanchini his etish, nafasni to'g'ri olish va sarflash artikulyatsiya va diktsiyaga asar mazmuniga e'tiborni haratish taqazo etadi.

Masalan: kompozitor A.Mallaboev musiqasi, Z.Ro'zieva she'ri bilan "Vatan himoyachilari qo'shig'i" bunga yorqin misol bo'la oladi. Asar marsh tempida 4/4 o'lchovda yozilgan. qo'shiqni ijro etish uchun talaffuzda nuqson bo'lmasligi kerak. Asar chaqqon, aniq, burro, jarangdor tenorlar uchun yozilgan bo'lib ijrochi ham texnik ham badiiy ijroni yaxshi o'rganishi talab etiladi.

Muqaddas saflarda shodlik yashaydi,

Askar o'g'lon mag'rur hadam tashlaydi.

Bir teran muhabbat ko'kragiga jo,

Vatan uchun jonini tikmoqqa shaydur.

3. Vokal kuylash malakalarini egallash.

Har bir talaba vokal kuylash malakalarini puxta egallash uchun avvalo ularda musiqiy idrok, o'ziga xos etarli diapozon chiroyli tembr; ovoz chidamligi kabilar mujassamlashgan bo'lishi kerak.

Ovoz yumshoq, aniq va jarangdor bo'lsa, bu ovoz tembri yaxshi hisoblanadi. Har xil mashqlar vositasida ovoz balandligini oshirish uni tarbiyalash mumkin. Aniq barqaror ovozning qaltiramasligi tovushni o'z balandligida cho'zib tura olishi ovozning tayanch kuchini bildiradi. Mashqlar aniq reja asosida olib boriladi. Ovozni charchatmasdan zuriqtirmaslik gigiena talablariga rioya qilish, kuylash malakalarini puxta o'rganishga olib keladi.

4-MAShG'ULOT

Mavzu: "So'zsiz kuylash, qo'shiq kuylashda psixologik, fiziologik anatomik omillarga ahamiyat berish" (4 soat).

REJA:

1. So'zsiz kuylash mashqlarini bajarish.
2. Kuylash jarayonidagi ruhiy hissiy holat.
3. Ijrodagi fiziologik holatni o'rganish.

1. Vokalizatsiya so'zsiz ashula aytish. Talabalar bilan kuylash mashqlarini bajarishda so'zsiz nota yo'li bilan kichik asarlarni kuylash ulardagi musiqiy idrokni tarbiyalaydi. Nota cho'zimlariga amal qilish tondan-tonga aniq ko'chish pauzalarga rioya qilish lozim. Uni tovushlarda bir tekis ovozda kuylash xromatik gamma asosida ligato vositasida kuylash. tovush ravonligi bir tembriligi va quyi ohang shakllanishi uchun yozilgan mashqlarni kuylash talabani texnik va badiiy ijrochiligini mustahkamlaydi.

FABT. Vokaliz №7. Andante tempi o'lchovi S;

2. Kuylash jarayonidagi ruhiy hissiy holat asab sistemasining tuzilishi va harakatlanishi markaziy va oliy asab sistemasi bilan bog'liqdir. Ashulachilik psixologik-fiziologik jarayondir. Unda intellektual hissiy irodaviy muhitlar chuqur bog'langan bo'ladi.

3. Ijrochilikdagi fiziologik holatni o'rganish. Ijrochilikdagi fiziologik holatni o'rganish bilim jarayoni sezgilardan boshlanadi. Sezgi-bu oddiy ruhiy fiziologiyasi a'zolari eshitish, qabul qilish, jamlash, sarflash, bosh miyaga etkazib berish atrofdagi voqealarni tushunish ijrochining fiziologiyasiga ta'sirini o'tkazadi. Asar muhiti, g'oyasi, ifodaviy, ruhiy holati vujudni qamray oladi. Bunday murakkab jarayon qo'shiqchi ashula aytayotganida sezgilarni his etish, tahlil qilish zarur. Eng muhim holat bu eshitish. Tovush apparati bilan quloq uzluksiz bog'liqdir. Talaba bilan asarni o'rganish jarayonida har bir frazalarni qanday eshitish, qanday ta'sirlanish fiziologik o'rganish sezilarli holatni ashulada ruhiy hissiy holatlarni bog'lash va o'rganish tahlil qilishni zarur. Eshitish faol va passiv bo'ladi. Xonandalik vokal ijrochiligida eshitish to'g'ri ohangni noto'g'ridan ajratish emas, balki uning tovush apparatining harakatini sezish va ularni tasavvur qilishdir. Talabalaning eshitish qobiliyati yaxshi rivojlansa u hech qachon yaxshi o'qituvchi, yaxshi xonanda bo'la olmaydi. har bir talabalaning shaxs xususiyatlari turlicha. Bularga qobiliyat, temperament, xarakter va boshqalar kiradi va ashulalarga o'quvchilarning rivojlanishi bog'liq bo'ladi.

5-MASHG'ULOT

Mavzu: “Vokal malakalarini egallashda ketma-ketlik va muntazamlikka asoslanib ish ko'rish” (4 soat).

REJA:

1. Vokal kuylash malakalarini shakllantirish.
2. Ijro mahoratini oshirishda asta-sekinlik bilan ovoz imkoniyatlarini oshirish.
3. Vokal ijrochiligida muntazamlilik tamoyillariga amal qilish.

1. Har bir talaba va o'qituvchi vokal pedagogikasi uslubiy ko'rsatmalarini bilishi lozim. Ovoz ustida ishlash jarayonida nafas, hiqildoq, til, jag', ovoz rezonatorlari bog'langan va bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Vokal kuylash jarayonida murakkab ovoz apparati tizimi vujudga keladi. Har bir tovush musiqiy qobiliyatning natijasi deb baholanadi. Ovozni to'g'ri ishlata bilish asosiy vazifa hisoblanadi. ovozni rivojlantirishda turli asarlarni qo'llash mumkin. Mana shu tariqa vokal kuylash malakalarini shakllanib boradi.

2. Ijro mahoratini oshirishda ketma-ketlik bilan ovoz imkoniyatlarini oshirish.

Talabalar bilan dars jarayonida nafas olish saralash so'z va musiqa tizimlarini bog'lash natijasida tinglovchi uchun mujassam ohang mavjudligi paydo bo'ladi.

Mazkur tamoyil ovoz rivojlanishi ketma-ket, asta-sekinlik bilan amalga oshiriladi. Asosiy tonlardan boshlab diapozon va dinamik imkoniyatlarni hisobga olish zarur. Vokal mashqlari oddiydan murakkabga, vazminlikdan tezlikka, musiqiy ijrochilik vazifalari asta-sekinlik bilan murakkab repertuarga etib kelishi muhimdir.

3. Vokal ijrochiligida muntazamlik tamoyiliga amal qilish.

Bu tamoyilni amalga oshirish uchun muntazam ravishda quyidagi uslubiy ko'rsatmalarga amal qilish zarur.

1) Ko'krak-qorin nafasidan foydalanish.

2) barcha ovozlarga xos bo'lgan past va yuqori ovozda kuylash.

3) Ijro etilayotgan asar mazmunidan kelib chiqib turdi balandlikdagi tovushlarda kuylashda bosh rezonatorlardan foydalanish.

4) Hiqildoqni erkin holatda tutish.

5) Yon payga muskulni zo'riqtirmaslik.

Vokal ijrochiligida ko'nikmalarni hosil qilishda mashqlar asosiy o'rin egallaydi. Bu holat talabalar bilan doim bog'liq bo'lishi, ularni kuzatish, materiallar, mashqlar, asarlar, vokalizlar vositasida muntazam ishlash jarayonidir.

6-MASHG'ULOT

Mavzu: “Rejadagi asarlarni to'liq yoddan kuylash, mustaqil ishlash ko'nikmalarni shakllantirish” (4 soat).

REJA:

1. Rejadagi asarlarni bilan tanishtirish.

2. Asarlarni kuylashda yoddan erkin ijroni o'rganish.

3. Bo'lajak o'qituvchi sifatida mustaqil o'z asarlari ustida ishlash.

1. Yuqori bosqich talabasi oxirgi semestr uchun tanlangan dastur ustida tajriba sitnof tariqasida huddi amaliyot o'tgandek o'zini erikn tutib, rejadagi asarlar bilan qanday tanishishni, boshlang'ich dars soatlarini qanday tashkil etish ovoz sozlash, vokaliz kuylash, asarlarni tahlil qilish, o'z-o'ziga chalib, kuylay olish, tovush hosil qilish, ovozdagi kamchiliklar, talaffuzdagi nuqsonlar so'z va musiqa birligi, jo'rnavoz bilan ishlash kabi tushunchalarni to'liq o'zlashtirib olishi lozim.

Asar muallifi, g'oyasi, tempi, o'lchami, dinamik belgilari haqida aniq ma'lumot berilishi zarur. Barcha ishlarni ham nazariy ham amaliy jihatdan to'liq bajarish talabaning vazifasidir.

2. Asarni kuylashda ovozni me'yorida saqlab, nafas turlariga e'tiborni qaratib qorin aralash dafragmal nafas olib, mustahkamlash, erkin mustaqil ravishda asar so'zlarini va ohangini puxta o'rgangan holda kuylash mahoratini namoyish etishi lozim.

Masalan: D.Omonullaeva musiqasi, M.Boboiev she'ri bilan "Shu aziz vatan barchamizniki". Asar mashr tempida yozilgan. 4/4 o'lchovda. Nimchoraktalik, choraktalik, yarimtalik notalar mavjud. Asar lirik, toner ovozlari uchun yozilgan (asar ilova qilinadi).

O'zbekiston degan go'zal chaman bu,
Olloh in'om etgan qutlug' vatan bu.
Yurtboshimiz aytgan ulug' suhan bu,
"Shu aziz Vatan barchamizniki".

3. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi sifatida mustaqil o'z dasturi ustida ishlash.

Avvalo ovoz sozlash mashqlarini bajarish. Dasturda tanlangan vokalliklarni kuylash. Ovoz kuylash darajasiga etkazilib ishlangach asarlarni kuylashga o'tishi joiz. Albatta bu barcha ishlar o'qituvchining kuzatuvida hamkorligida amalga oshiriladi. Talaba o'z dasturida ovoz mashqlari, vokalizlar, maktab repertuari va zamonaviy qo'shiqlar ariya va romanslar duetlar, milliy xalq qo'shiqlaridan namunalar o'rganishi kuylashi lozim. Nafas yo'llari aniq va to'g'ri talaffuz, burro, asar g'oyasi va maqsadini ovoz orqali ifodali ta'sirli yoqimli, jarangdor tantanavor, asar mazmuniga qarab lirik dramatik mahzur va boshqa holatda maromiga etkazib kuylash maqsadga muvofiqdir.